

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.Arslonzoda,O.Maripov

O'zbekiston Respublikasida davlat arxivlari faoliyatining takomillashib borishi 318

R.Urazova

Avesto yashtlarida Mitraning sifatlari 325

N.Nizametdinov

Markaziy Osiyoning Xitoy bilan aloqalari tarixi 331

I.Burxonov

Asomiddin O'rinoev ilmiy merosida Abduxoliq G'ijduvoni tasavvufiy
ta'lilotiga oid ruq'alarning o'rganilishi 338

N.Jumaev

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro vohasi dehqonchilik madaniyati tarixidan 342

D.Akramov

Xalq maorifining nazariy asoslari 348

ADABIYOTSHUNOSLIK

G.Oripova

Mustaqillik davri o'zbek lirkasida ritm va ohangdorlik 354

I.Baltayeva

Adabiy vorisiylilikning xorij adabiyotida o'rganilishi 359

F.Oxunjonova

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida zullisonaynlik an'anasi takomili
(Nodim, Xilvatiy, xayratiyalar ijodi misolida) 362

D.Uralova

Ulug'bek Hamdamning "Safar" hikoyasida ramziy obrazlar uyg'unligi 366

S.Begmatova

Jahon adabiyotida distopik asar turlariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar 370

A.Yuldashev

Alisher Navoiy asarlarida so'z tavsifi 374

O.Barziyev

Farzand taqdiriga murojaat yoki ularga nasihat qilish mavzusiga oid an'anaviy
poetik turkumlar 382

D.Sultonova

Badiiy kriminal asarlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari 387

S.Alibekova

O'tkir Hoshimovning hajviy xarakter yaratish mahorati 392

Sh.Sherg'oziyev

"Boburnoma" matnida foydalanylган saj'i mutarrafning ingliz tili tarjimalarida
aks ettirilishi 396

X.To'raxonova

Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida badiiy tasviriy vositalarning qo'llanilishi 400

D.Hazratkuliyan

Hozirgi O'zbekiston tojik she'riyatida bediliy uslub an'analariga izdoshlik
(Ja'far Muhammad Termiziy she'ri misolida) 403

M.Narziqulov

Tojik adabiyotida g'azalning mundarijasi va shakli o'zgarishi 410

M.Mirzoyev

Farzona Xo'jandiylarida mifologik personajlar badiiy ifodasining xususiyatlari 420

TILSHUNOSLIK

Z.Alimova

Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha qo'shma so'zlarning
leksik-semantik xususiyatlari haqida 425

O.Nazirova

ULUG'BEK HAMDAMNING "SAFAR" HIKOYASIDA RAMZIY OBRAZLAR UYG'UNLIGI

СОЧЕТАНИЕ СИМВОЛИЧЕСКИХ ОБРАЗОВ В РАССКАЗЕ «ПУТЕШЕСТВИЕ» УЛУГБЕКА ХАМДАМА

THE COMBINATION OF SYMBOLIC IMAGES IN THE STORY “JOURNEY” BY ULUGBEK HAMDAM

Uralova Dilnoza Murodilla qizi¹

¹Uralova Dilnoza Murodilla qizi

– Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada Ulug'bek Hamdamning "Safar" hikoyasi asosida ramziy obrazlar olami, uning hikoya mazmun-mohiyatida va asar g'oyasining badiiyatida tutgan o'mni masalasi ochib berilgan. Adibning ramziy obrazlar tizimi, bayon uslubidagi ramziylikning asar mazmun-mohiyatidagi g'oyasining davr ruhi bilan mutanosibligi ochib berilgan. Ijodkor narsiy asarlarida qo'llanilgan ramziy obrazlarning turlari asar matnlari asosida dalillangan. Yozuvchi hikoyalari dagi uchinchi shaxs tilidan hikoya qilish, asarga psixologik tasvirning turli usullarini jaib etish imkonini beradi. Bunday hikoyalari turiga ichki monologlar, oshkora iqrorlar, tushlar, galliyutsinatsiyalar yengilgina qorishib ketaveradi. Zero, uchinchi shaxs tilidan hikoya vaqt bilan erkin munosabatga kirisha oladi, inson ruhiyatida kechadigan oniy tahili paytida vaqt uzoq muddatga to'xtab qolishi yoki asar voqealari haqida qisqacha ma'lumot berilishi mumkin. Syujet tarmoqlari orasidagi bog'liqlik shunga misol bo'la oladi. Bu ijodkorga umumiyligi hikoya qilish uslubida psixologik tasvirning badiiyligini orttirish, kitobxon e'tiborini voqealar rivojidan his-tuyg'ularga ko'chirish imkonini beradi. Ramziy tasvirlar, badiiy obrazlar vositasida inson ilohiy mo'jiza qudrati bilan o'zga insonlar ruhiyatini his qiladi, ularni xuddi hayotdagidek jonli insonlar kabi tasavvur etadi. Ramziy obrazlar qiyofasida har safar obrazlarning yangi, sirli, sehrli, betakror ilohiy dunyosi namoyon bo'laveradi.

Аннотация

Все статье рассматривается мир символических образов на основе покровительства "Сафар" Улугбека Хамдама и его роль в сущности содержания и художественной идеи произведения. Выявлено соотношение писательской системы символических образов, идеи символизма повествовательного стиля в сущности произведения с духом времени. На основе текстов произведений доказываются виды символических образов, используемых в авторских прозаических произведениях. Повествование от третьего лица в рассказах писателя позволяет задействовать в произведении различные приемы психологической презентации. В такие рассказы легко вмешиваются внутренние монологи, откровенные признания, сны и галлюцинации. Ведь рассказ от третьего лица может иметь свободную связь со временем, время может быть остановлено на длительное время при сиюминутном анализе человеческой психики, может быть дана краткая информация о событиях произведения. Примером этого являются отношения между ветвями сюжета. Это позволяет творцу приобрести художественность психологического образа в общем стиле повествования, переключить внимание читателя с развития событий на эмоции. С помощью символовических образов и художественных образов человек с силой божественного чуда чувствует психику других людей, представляет их живыми людьми, совсем как в реальной жизни. В форме символовических образов каждый раз раскрывается новый, таинственный, волшебный, неповторимый божественный мир образов.

Abstract

The article reveals the world of symbolic images based on Ulugbek Khamdam's story "Safar" and its place in the essence of the story, its place in the art of the idea of the work. The ratio of the writer's system of symbolic images, the idea of narrative style symbolism in the essence of the work with the spirit of the time is revealed. The types of symbolic images used in the author's prose works are proven based on the texts of the works. Narrating from the third-person language in the writer's stories allows the work to involve various methods of psychological representation. Internal monologues, open confessions, dreams, and hallucinations are easily mixed into such stories. After all, the story from the third-person language can have a free relationship with time, time can be stopped for a long time during the momentary analysis of the human psyche, or brief information can be given about the events of the work. An example of this is the relationship between plot branches. This allows the creator to acquire the artistry of the psychological image in the general storytelling style, to shift the reader's attention from the development of events to emotions. With the help of symbolic images and artistic images, a person feels the psyche of other people with the power of a divine miracle, imagines them as living people, just like in real life. In the form of symbolic images, a new, mysterious, magical, unique divine world of images is revealed every time.

Kalit so'zlar: ramz, obraz, syujet, kompozitsiya, badiiy estetik ideal, hikoya, talqin.

Ключевые слова: символ, образ, сюжет, композиция, бадий эстетик идеал, хикоя, толкование.

Key words: symbol, imagine, composition, artistic – aesthetic ideal, story.

ADABIYOTSHUNOSLIK**KIRISH**

Badiiy adabiyotda ramziylik adabiyotning o'zi kabi qadimiyyidir. Ramziylik so'z san'ati sifatida shu adabiyotning paydo bo'lishi bilan tug'ilgan. Badiiy tafakkur inson ibtidosi qadar qadimiy bo'lib, odamlar tabiat va jamiyat hodisalariga munosabat bildirib, o'z hissiy kechimlalarini obrazli tafakkur orqali berishga harakat qilish jarayonida badiiy ko'chimlarga ehtiyoj sezganlar, bunday ko'chimlar hayot hodisalarini tasvirlash tamoyillariga qarab bir necha turlarga ajralgan, ulardan biri esa ramzdir. Ramziylik barcha xalqlar uchun xos bo'lgan xususiyatdir. Antik davr adabiyotidan boshlab maqsad va g'oyani ramz va timsollar vositasida badiiy tasvirlash usullari keng rivojlangan. Ramzlar aslida ham chegaralangan cheksizlik, shaklga solingen shaksizlik, individuallikda mujassamlashgan umumiylig xususiyatlarga ega bo'lib, uni o'ziga xos tafakkur tarzi deb baholash mumkin.

Butun turkiy adabiyot nasri va nazmining durdona asarlarining salmoqdor qismini ramziy tasvir uslubi egallagan bo'lib, uning rivoji va hozirgi kunda ham insoniyatning butun qiyofasi, kechinmalari ramzlar vositasida namoyon bo'lishi timsollarning o'rni adabiyotda nechog'lik ustuvor ekanligidan dalolatdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hozirgi zamon adabiyotshunosligida ramzlar shunchaki oddiy o'xshatish emas, balki mazmuni va mohiyati murakkab badiiy vositadir. Chunki har qanday ramz o'zining asl mohiyatidan tashqarida turuvchi predmetga yoki tushunchaga ishora qiladi.

Zamonaviy o'zbek hikoyachiligi yangicha badiiy-estetik yangilanishlar bilan o'zgarmoqda. Ularda qahramon ruhiyatiga yanada, chuqur kirish, badiiy psixologizmining yangicha tasviriy vositalari bo'lgan adabiy gallutsinatsiya, illyuziya singari tasvirlar, yangicha ramziy psixologik timsollar yaratish, hatto yozuvchi fantaziysi bilan yaratilgan badiiy-romantik to'qima obrazlar talqini ham uchraydi.

Hikoya prozaning eng kichik janrlaridan hisoblansa-da, uning zamirida juda katta badiiy dunyo yashaydi. Xususan, yangi o'zbek nasriga tamal toshini qo'yan Abdulla Qodiriy, Cho'pon, Oybek, Abdulla Qahhorlar izidan borib, Ulug'bek Hamdam ham nasrdagi ijodiy mashqlarini hikoyadan boshlagan, bu borada muayyan tajriba to'plagach, qissa va roman janrlariga qo'l uradi. "Garchi muallifga qissa va romanlari ko'proq shuhrat keltirgan bo'lsa-da, nasrda ko'z ochib ko'rgan bu janrga sodiqligicha qolayotir" [4.424]. Bugungi zamon hikoyalarida inson ruhiyatini, ehtiros va his-tuyg'ularining keng silsilasini turfa ziddiyatli bo'yoqlarda aks ettirish, odamzod shuurini band etgan muammolarni butun murakkabligi bilan suvratlantirish, shaxsning umuminsoniy mohiyatini ekspressiv tarzda ochib berishga intilish yetakchi yo'naliishga aylandi. Ulug'bek Hamdam ijodidan bahramand bo'lishi uchun, nazarimizda, ma'lum darajada intellektual hamda psixologik tayyorgarlik bo'lishi kerak. Xususan, yozuvchining "Safar" hikoyasida bir necha ramziy obrazlar talqiniga duch kelamiz. Ana shu ramziy timsollar asarning g'oyasini ochib berishga xizmat qiladi. Ijodkor hikoyada quyidagi ramziy obraz turlaridan mohirona foydalangan:

- 1). narsa-buyum ramzlari: haykal, kitob;
- 2). tabiat hodisalari bilan bog'liq ramzlar: tuman, ummon;
- 3). allegorik ramz:boyqush.

Asardagi har bir ramzning badiiy g'oyasi mavjud. Hikoya sarlavhasining o'ziyoq ramziylikka yo'g'rilgan, insonning bosib o'tgan hayot yo'li aslida safardir. Dunyoga kelgan har bir inson borki, safarga otlanadi. Safarning ibtidosi tug'ilish, intihosi esa o'limdir. Safar asarda inson umrining o'lchovi ma'nosida timsoliy ifodalangan. Hikoyaning boshlanmasida yozuvchi peyzaj bilan boshlaydi: "Tinch ummon vazmin chayqaldi... Hozir esa suv yuzasini qalin oqish tuman qoplagani bois, qayiqdan turib qaralganda burun ostinigina ko'z ilg'aydi... Asarda tasvirlangan ummon ramziy ma'noda hayot timsolidir. Ummonning tinch mavjlanishi ba'zan aldamchi ekanligi, uning o'ziga yarasha taxlikalari borligi haqida aytib o'tiladi. Haqiqatdan ham, ummon ramziy ma'noda hayot, xususan, har bir insonning hayot yo'li bir qarashda tinch, sokindek tuyulsa-da uning o'ziga yarasha bir qancha baland-pastliklari bor. Asarda safar uchta qismga ajratilgan. Nazarimizda, asarda qo'llanigan uch raqami ham o'ziga xos ramziy ma'noga ega. Ibtidoiy qarash bo'yicha uch raqami ko'pchilikni, uzoq muddatni anglatadi. Safarning uch bosqichi, ya'ni uch son-ramzi asarda ko'p davom etgan muddatning ramziy ifodasi sifatida tasvirlangan. Bundan tashqari, uch raqami sharq xalqlari ijodida ana'naviy haqiqatlarni ham aks ettirgan, muqaddaslashtirilgan. Ulug' italyan shoiri

Dante Aligeri “Ilohiy komediya” sining uch qism-Do’zax, Arosat, Jannatdan iboratligi va tertsina-uchlik shaklida yozilishida ham uch raqamining timsoliy tushunchalarni tashuvchi vosita ekanligiga guvohi bo’lamiz. Ulug’bek Hamdam ham “ safarning birinchi kuni”, “safarning ikkinchi kuni”, “safarning uchinchi kuni” kabi birikmalarida ham falsafiy mushohadalarga chorlaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hikoya voqealari ikki qabila vakillarining huddiki o’t va suvdek dushmanlik qilishlari bilan boshlanadi. Bu ikki qabila vakillari ularning ajdodlari bobosi-yu momosi bir ekanligi, shu ikki insondan tarqalishganini yaxshi bilishadi. Lekin ne yoziqki, o’zları bir tan-u jon bo’lisholmaydi. Asarda tasvirlangan: “Baxshilarning kuylashicha, orolga ular ko’pchilik bo’lib emas, bor-yog’i ikki kishi: bir yigit-u bir qiz bo’lib kelishgan. Hozirgilar ana o’shalarning avlodlari. Faqat hech kim bilmaydiki, ular qayerdan kelishdi-yu, nega kelishdi, yana nima uchun aynan ikki kishi bo’lib?”[4.422]. Bu holatidan shu anglashiladiki, dushmanlik qilayotgan qabilalar hozirda bir-birlari bilan qirg’inbarot urushlar qilayotgan qanchadan-qancha mamlakatlarning timsoli bo’lib, yigit va qiz esa an’anaviy Momo Havvo va Odam Atoga ishoradir. Asarda tasvirlangan qabilalar kichkinagina orolda, yozuvchi ta’biri bilan aytganda, “do’ppidekkina” orolda yashashardi. Yozuvchi orol timsoli orqali butun yer shariqa ishora qilmoqda. Biz yashayotgan mana shu zamin aslida yaratganning mo’jizalari ichida do’ppidekkinası, lekin insoniyat o’zining bu yaratiglarning oldida o’zining naqadar kuchsiz ekanligini anglab yetmasligi achinarli holat, albatta. Bu besh kunlik dunyoda bir o’tovda birpas barobar o’tira olmas yovlarga aylangan taraflar qachonlardir et-u tirmoq kabi inoq bo’lishgan, vaqt o’tib ko’payishdi, o’ttada mehr-u oqibat ham ko’tarildi, hatto ikki qabila vakillari bir-birlari bilan tilmoch orqali gaplashadigan bo’lishdi, ularning dushmanliklari shu darajaga borib yetdiki, hatto ular bir-birlariga bo’lgan dushmanliklarini, o’zlarini yog’iydan ustunliklarini har kuni, har lahma oshkor qilish yo’llarini izlay boshladilar, nihoyat toshdan haykal yo’nib, ummon suvlari urilib turgan sohilga o’rnatishni qiz taraf boshlab berdi. Bu holatni ko’rgan yigit taraf, yog’iylnikidan balandroq haykal qurib, ulardan ulardan ustunliklarini bildirib qo’yishadi. Oqibatda, ikki taraf tun-u kun haykal qurish bilan ovora bo’lib, hayotlarining mazmuniga aylantirishadi. Hikoyada tasvirlangan haykallar inson qalbidagi o’tkinchi hoy-u havaslarga mukkasidan ketgan insonlarning ramzi sifatida tasvirlangan. Agar qabilalarning haykal qurishiga e’tibor qaratsak, dunyoning yetakchi davlatlarining bir-birlaridan o’zish, kuchlarini ko’rsatish maqsadida yaratayotgan kimyoviy ixtirolargacha ishora ham seziladi. Qabilalar shu darajada haykal qurishga berilib ketishadiki, ularning qalbini kibr, mag’rurlik egallab oladi. Oqibatda o’rmonlar ham kesilib, hayvonlar so’yilib, qushlar esa bu xosiyatsiz oroldan chor tomonga uchib jon saqlardilar, ahvol shu darajaga yetdiki, qabila vakillari hatto bir-birlarini tutib olib yeza boshlashdi. Bundan anglashiladiki, ortiqcha hoy-u havasga haddan tashqari mukkasidan ketish insonning qay ko’ylarga solishi mumkinligi anglashiladi.

Qirg’inbarot urushlardan tinkasi qurigan, chorasislik ikki yuzko’rmas qabila boshliqlarini murosa-yu madora qilishga majbur qilib qo’yan edi. Oxiri kelishib, yoqilmay qolgan oxirgi qayiqqa yigit va qizni taqdirning hukmiga havola qilishdan boshqa chorralari qolmaydi. Boyqushlar manziliga aylangan orolni yigit va qiz tark etishadi. Yozuvchi orolning holatini boyqush ramziy timsoli orqali tasvirlab beradi. Uzoq sukunatdan so’ng yigit allaqanday lattaga o’ralgan matohni avaylab ochadida, qizga qarab: “Bu-bizning kitob!”, -deydi faxr bilan. Shunda qiz ham qo’ynidan shunday bir kitob chiqaradi. Ularning biri osmon, ikkinchisi zamin rangida bo’lib, shakl-u shamoyillari ham farqli edi. Ammo ichini ochib qarashsa, ikkalasi bir xil, bitta kitobdek tuyuldi. Safarning yettinchi kuni yana bir yangi tong otib, qoramtil osmon oltinrang nurlarga chulg’anadi va momiq bulutlar ostida bir juft oppoq qush nimadandir xabar berayotgandek chug’ur-chug’ur etgancha charh uring aylana boshlaydi. Asar so’nggida tasvirlangan osmonning oltinrang nurlari, momiq bulutlar, hamda bir juft oqqush timsollar yigit va qiz anglab yetgan ezgulikning timsollaridir.

Hikoyada yigit va qizning qo’lidagi kitob esa, yer yuzidagi insonlar o’z kitoblaridagi ta’limotlarni bir biridan ustun qo’yishib, qirg’inbarot qilishsalarda, kitoblardagi mohiyat bitta ekanligi anglashiladi. Adabiyotshunos A.Sabirdinov ta’kidlaganidek, “Qalb – ziddiyatlar, evrilishlar makoni. Zohirdagi ziddiyatlar, avvalo, botinda tug’ilishi inkor etib bo’lmas haqiqatdir”

XULOSA

Hikoyani hozirgi zamon nuqtayi nazaridan olib qarasak, hozir ham odamlar bir-birlarini boshqacharoq bo’lgani uchun, o’zlariga o’xshamagani, o’zga tilda so’zlashgani, boshqa dinga e’tiqod qilgani va shu kabi “begonalik”lar uchun yomon ko’rishadi, dushmanlik qilishadi. Hatto bitta dinlar o’tasida ham turli mazhablar, yo’nalishlar mavjud bo’lib, bir-birlarini aynan ana shunday

ADABIYOTSHUNOSLIK

shakllardagi tafovutlar uchun ayblashadi, fitnalar uyushtirishadi, urushlar qilishadi. Jumladan, keying o'ttiz yil ichida Yaqin Sharq, Afg'oniston, Ukraina, Afrika, Bosniya kabi mamlakatlar va mintaqalar ham yozuvchining "Safar" hikoyasidagi bir-biriga dushmanlik qilgan qabiladoshlar taqdiriga o'xhash. Yozuvchi qirg'inbarot qilayotgan davlatlarning yakuni qanday azob-uqubatlarga olib kelishini ikki qabila vakillari ramziy obrazlari orqali teran tasvirlab beradi.

Shu o'rinda Rumiying o'sha mashhur hikoyatini esga olsak: odamlar Ka'baga qarab yo'l olar ekan, kim Mag'ribdan, kim Mashriqdan, yana kim otda-yu, kim piyoda harakatlanadi. Mag'riblik mashriqlig bilan kela-kelguncha "mening yo'lim to'g'ri, seniki egri", - deya talashib-tortishadi. Lekin Ka'baga, yaratganning uyiga kelgach esa tortishuvlar barham topadi. Chunki ular hammalarining istaklari bir, yagona ekanligini tushunib qoladilar. Xuddi shunday, bugungi kundagi, zamondagi ko'pgina diniy, siyosiy, ixtiloflarning sababi ham aynan shunday shakllarda. Ichkari mohiyat esa, odamlar aksar holda bir narsani xohlashadi. Hikoyaning badiiy estetik qiymati shundan iboratki, hikoyaning sharqona falsafiyligi, ya'ni "izlaganing o'zingdadir"ni, tiriklik ma'nosi, hayot mohiyati kabi tushunchalar ramziy-majoziy obrazlar tasviri mohirlilik bilan singdirib yuborilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Normatov U. Tafakkur yog'dusi. –T., 2006.
2. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. –T.: Yangi asr avlod, 2002.
3. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. –T.: Yangi asr avlod, 2006.
4. Hamdam U. Vatan haqida qo'shiq –Toshkent. Akademnashr.: 2019
5. Кенжава П. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида қаҳрамон руҳиятини тасвирлаш тамоиллари. ф.ф.н.дисс., – Т., 2008.
6. Rahimjonov N. Bugunning qahramoni kim?// O'zbek tili va adabiyoti. - 2001. - №6. - S. 8-12.
7. Rahimova L. Badiiy konflikt talqini// Yoshlik, 2014, 1-son.
8. Rahmat R. "Vatan haqida qo'shiq"ni tinglab...// Kitob dunyosi gazetası N16 (187) 2014-yil 2-avgust.
9. Sabirdinov A. Ma'naviyat va ma'rifat chashmalari –Toshkent. Akademnashr.: 2016.
10. Қаюмов А. Ҳозирги ўзбек насррида миллий характер ва бадиий маҳорат (Ў.Хошимов ва Н.Жалолиддин ҳикоялари мисолида). фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дисс., –Фарғона, 2018.
11. Шаропов А. Оламлар ичра оламлар.-Т.: Адабиёт ва санъат нашиёти.1978. –Б.23-26.